

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ  
СИЁСАТИНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

*Ro'ziyeva Nigora Nurmurodovna*

*Buxoro elektr bilan ta'minlash korxonasi texnik-texnologi.*

*Ilmiy rahbar: Inagamova Mafura Muxtarxonovna*

*Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati va uning doirasida qabul qilingan bir qator qonun va qarorlar, ularning ijrosi orqali yoshlarga yaratib berilgan imkoniyat va imtiyozlar to'g'risida hamda soxada uchrayotgan ayrim kamchiliklar ularning yechimida rivojlangan davlatlarning andozalari va takliflar berib o'tilgan.

**Tayanch tushunchalar:** Konstitutsiya, Oliy ta'lim, 65 % ni tashkil etuvchi O'zbekiston yoshlari, Yoshlarga oid davlat siyosati, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar Parlamenti, "O'zbekiston yoshlari tashabbusi" jamg'armasi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается государственная политика в отношении молодежи в Новом Узбекистане и ряд принятых в ее рамках законов и решений, возможности и привилегии, создаваемые для молодежи посредством их реализации, некоторые недостатки в этой сфере а также примеры развитых стран и предложения по их решению.

**Ключевые слова:** Конституция, высшее образование, молодежь Узбекистана, составляющая 65%, государственная молодежная политика, агентство по делам молодежи, Молодежный парламент, фонд "Молодежная инициатива Узбекистана".

**Annotation:** In this article, a number of laws and decisions adopted in the framework of the state youth policy in New Uzbekistan, about the opportunities and benefits created for young people through their implementation, and some of the shortcomings encountered in Soha are given by the templates and proposals of developed countries in their solution.

**Keywords:** Constitution, Higher Education, Youth of Uzbekistan, state policy on Youth, Agency for Youth Affairs, Youth Parliament, Foundation "Youth Initiative of Uzbekistan", which makes up 65%.

**Muhokama va Tahlillar:**

O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi bo'lmish Konstitutsiyaning XIV-bob 77,78,79-moddalarida yoshlarning huquq va erkinliklari himoyasi kafolatlangan. Unga ko'ra yoshlarimizning bolaliklaridan to'voyaga yetgunlariga qadar ularning

ta'lim- tarbiya, xulq-atvori hamda komil inson bo'lib voyaga yetishlari kuzda tutilgan. Jumladan farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik kelip chiqishidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Davlat va jamiyat bolaning huquqlari va erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati etib belgilab qo'yilgan.

Ma'limki yangi o'quv yiliga qabul Avgust oyida boshlanadi. Bu O'zbekistonda yoshlarning oliy ta'limga kirish imtihonlari oyi. Yoshlar bu oyda o'zlarining anchadan buyon orzu qilgan, yillar davomida qunt bilan o'qib bilimni oshirib imkon qadar oliy ta'lim olishga intilib, o'zlarining kelajaklarini belgilashadi.

Ular davlatning kelajagini belgilab beruvchi demografik qatlamdir. O'zbekiston-yoshlar mamlakati. 36 millionlik O'zbekistonda, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 65 foiz aholini tashkil qiladi. Ya'ni har uch o'zbekistonlikning 2 nafari hali 30 ga kirmagan. Qolaversa, O'zbekistonda tug'ulish va demografik o'sish salmog'i ham ancha katta. Har yili 900 ming dan ortiq bola tug'iladi. Sof demografik o'sish esa, 670 mingdan oshadi. Demak, har ikki yilda O'zbekiston aholisi 1 million 200 mingdan ko'proqqa oshadi. Xalqaro maydonda ham O'zbekiston yoshlari yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi. Mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-sonli;

- O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida 2020-yildagi PF-6017-son;

- "O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-sonli qaror va qonunlar ishlab chiqib ijroga qaratildi.

Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida qonunga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosati- davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellectual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir deb belgilangan.

Shu o'rinda siyosatshunos K.Rabbimovning -" yoshlarga oid davlat siyosati-bu davlatning demokratik taraqqiyot yo'lida rivojlanishida yoshlarni muhim strategik kuch sifatida tan olishi, zamonaviy dunyoda yoshlarning ehtiyojlari, ularning mavjud demokratik muhitga to'g'ri moslashuviga yo'naltirilgan qonunchilik va ijro etish xususiyatining yig'indisi hamda o'zining yoshlarga nisbatan boshqaruv va ijtimoiy funksiyalarini demokratik siyosiy tizim, xalqaro yoxud milliy huquq normalari talabi

darajasida to'liq bajarishdir<sup>1</sup>” degan fikrini kelтириб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi yoshlar masalalari davlat siyosati darajasida o'rganilishi va yaxshilanishi uchun bir qator rivojlangan davlatlardan xususan Germaniya Federativ Respublikasi -Oila, keksalar va yoshlar masalalari vazirligi, Turkiya davlati -Yoshlar va sport vazirligi, Rossiya Federatsiyasi -Federal yoshlar agentligi kabi mamlakatlarning boy amaliy tajribasidan andoza olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish” to'g'risidagi 30.06.2020 yildagi PQ-4768 sonli qarori qabul qilinib ijroga qaratildi<sup>2</sup>. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 550-sonli <sup>3</sup>, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati huzuridagi Yoshlar parlamenti faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 5 maydagi yildagi KQ-346-IV-sonli qaror<sup>4</sup> lari qabul qilindi.

Yuqoridagi davlat organlari faoliyatini tahlil qilish natijasida ijobiy natijalar bilan birga ayrim kamchiliklar, Xususan:

- Yoshlarning o'zi ushbu tashkilotlarning asosiy faoliyatlari va maqsad-vazifalari haqida to'liq tushunchaga ega emasligi;
- Mazkur tashkilotlarga yoshlar o'z takliflari va muammolari bilan ishtirok etish ko'rsatkichining pastligi ko'zga tashlanmoqda.
- Yoshlarning o'z huquq va majburiyatlarining to'liq anglolmasligi;
- Siyosiy faolligining pastligi hamda yoshlarning bunday tizimga loqaydligi;
- Ushbu tizim yoshlarni katta qamrovda birlashtirmayotganligi ko'zga tashlanmoqda.

Tahlillar natijasida Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar) dan iborat bo'lib ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega hamda federal darajadagi yirik yoshlar ittifoqlari va tashkilotlar yoshlarga siyosiy yo'nalish beradi, uyushtiradi, davlat bilan muloqot va hamkorlik qilishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli Germaniya- ta'lim va kasbga yo'naltirish, ilm va ilmiy tadqiqotlar davlati. Ko'plab “Nobel” mukofoti laureatlari, yuqori darajadagi ilmiy izlanishdagi yutuqlarga ega bo'lgan, ko'p loyihalarga moliyaviy yordam berib kelayotgan, turli davlatlardan kelgan o'quvchilarga ta'lim beradigan davlatga aylandi.

<sup>1</sup> К.Роббимов. Ёшлар сиёсатидан мақсад қандай бўлиши керак. Kun.uz/

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 июндаги ПҚ-4768-сон

<sup>3</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.09.2020 й., 09/20/550/1274-сон; 12.03.2021 й., 09/21/132/0202-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.06.2022 й., 09/22/312/0493-сон

<sup>4</sup> Тошкент ш.,2022 йил 5 май,КҚ-346-IV-сон

### Natijalar:

Ma'lumki 2021-yilda 25 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ishga olgan korxonalariga ijtimoiy soliqni qaytarib berish amaliyoti joriy qilingan edi. Bu imtiyozdan o'tgan davrda 9 mingdan ziyod korxonalar va tashkilotlar foydalandi hamda 100 ming ishsiz yoshlar bandligi ta'minlandi. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston yoshlari tashabbuslari" jamg'armasi va elektron platformasi tashkil qilinishi belgilandi. Jamg'armaga 100 million dollar yo'naltirilib, bu mablag'lar iqtidorli yoshlarning eng yaxshi g'oya, startap va loyihalariga qulay va yengil shartlarda, zarur bo'lsa, foizsiz ajratiladi.

Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida qabul qilingan qator hujjatlar bugungi kunda yoshlarga Quyidagi:

- Yoshlar daftari orqali ehtiyojmand yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash;
- Oliy ta'limga o'qish istagida bo'lgan yoshlarni moliyaviy ta'minlash bo'yicha foizsiz kreditlar ajratish;
- Yosh oilalar uy joy olishlari uchun subsidiyalar ajratish;
- Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish;
- Ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish kabi bir qator imtiyozlar yaratib berdi.

### Xulosa va Takliflar:

Xulosa o'rnida, bu elita va liderlar qatlamini tayyorlashni bugundan boshlash kerak. O'zbekiston yoshlariga iqtisodiy, huquqiy va siyosiy bilimlar berish ularni erkin va tanqidiy fikrlay oladigan shaxslar sifatida yetishtirish-davlatining yoshlar siyosatidagi eng markaziy vazifasi bo'lishi kerak. Chunki yoshlar bilan ishlash hayot-mamot masalasidir. Shuning uchun mamlakarbiyalashga alohida etibor qaratilmoqda. Farzandlarimizni bugungi tahlikali davrda turli yot g'oyalar tasiridan himoyalash, yoshlarning fikrlarini birovlar egallamasdan turib, ularga o'zimiz g'amxo'rlik va to'g'ri yo'l ko'rsatishimiz zarur. Jumladan, endilikda: Yoshlar bilan individual ishlashni jadallashtirish, jamiyatdan ajrab qolgan, hayotda o'z o'rnini topolmayotgan yoshlarni faol hayotga qaytarish, ularning muammolari va fikrlarini yanada ko'proq o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'lardi. Yoshlar masalasidagi oldimizga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli bajarish orqali islohotlar samaradorligi natijasini har bir yoshning hayotida ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi. Bu bilan yoshlarning davlatimiz tomonidan qilinayotgan g'amho'rliklarni hamda ishlab chiqilgan qonun va qarorlarning nechog'lik o'rinli ekanligini his qilishiga va faol hayotga kirib borishiga erishamiz!

"Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz-yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat". –O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT ning 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. К.Роббимов. Ёшлар сиёсатидан мақсад қандай бўлиши керак. Kun.uz/
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 июндаги ПҚ-4768-сон lex.uz
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.09.2020 й., lex.uz 09/20/550/1274-сон; 12.03.2021 й., 09/21/132/0202-сон;
4. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.06.2022 й., 09/22/312/0493-сон lex.uz
5. Тошкент ш.,2022 йил 5 май,КҚ-346-IV-сон lex.uz
6. О'zbekiston Respublikasi Prezidanti Sh.Mirziyoyevning BMT ning 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.